

Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 7 2024-YIL 28-AVGUST



BAYRAM TABRIGI

Mustaqillik – xalqimiz uchun erkin, baxtli va farovon hayot kechirish imkonini bergani, yurtdoshlarimizning barcha sohalarida o'z iste'dod va qobiliyatini to'la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun beqiyos imkoniyatlar yaratgani bilan qadrlidir.

O'tgan 33 yil davomida jonajon O'zbekistonimiz mashaqqatli va sharafli yo'lni bosib o'tdi, yurtimizda olamshumul ishlar amalga oshirildi. Bugun O'zbekiston tamomila yangicha qiyofa kasb etmoqda, bunyodkorlik ishlari jadal sur'atda davom etmoqda. Keyingi yillarda taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yilayotgani, yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotgani qayd etildi.

Aholini turmush darajasi yaxshilanmoqda, mahobatli turar joy binolari, tekis ravon yo'llar, shinam, ko'rkam mahalla va guzarlar, zamonaviy dam olish maskanlari, yoshlar uchun kun sayin yangilanib borayotgan imkoniyatlarda o'z aksini topdi.

Davlatimiz rahbari yangi g'oya va strategik yondashuv bilan o'z atrofiga yangi davr islohotchilari, vatanparvar

fidoiylarni to'plab, ularning bir yoqadan bosh chiqarib, faoliyat olib borishi uchun bor imkoniyatlarni ishga soldi.

Sog'liqni saqlash tizimida izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar ham yurtimizda inson umri, uning sihat-salomatligi oliy qadriyat sifatida amalda ulug'lanayotganidan dalolatdir.

Yurtimizda birlamchi tibbiy-sanitariya, shoshilinch va tez tibbiy yordam hamda ixtisoslashtirilgan xizmatlar takomillashib bormoqda. Onalar va bolalar o'limining oldini olish, kasalliklarni barvaqt aniqlash, oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiy madaniyatni oshirish, aholining o'rtacha umr ko'rish darajasini uzaytirish bo'yicha sezilarli natijalar qo'lga kiritilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini barcha jabhalarida bo'lgani kabi, tibbiy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirish va yuqori malakali mutaxassisi shakllantirishda tibbiyot oliy o'quv yurtlarida talabalarni tayyorlash, ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va

innovatsiyalar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Hurmatli hamkasblar! Biz o'z oldimizga xalqimizni har tomonlama rozi qilishdek ulug' vazifani qo'ygan ekanmiz, bu maqsadga erishish yo'lida sog'liqni saqlash tizimini jadallik bilan rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat qaratmoqdamiz. Yangi O'zbekiston tibbiyoti mustaqilligimizning 33 yilligini munosib shodiyona, o'zgacha iftixor bilan qarshi olmoqda.

Hurmatli akademiklar, professor-o'qituvchilar, barcha xodimlar va talabalar bugungi jasorat va matonat namunasini ko'rsatib kelayotgan barcha tibbiyot xodimlari, aziz hamkasblarimni eng ulug', eng aziz bayramimiz – Mustaqillik bayrami bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, jonajon O'zbekistonimiz yanada gullab-yashnasin! Sizlarga hamisha sog'lik-omonlik, ishlaringizda ulkan muvaffaqiyatlar, oilangizga tinchlik-xotirjamlik tilayman.

SH.BOYMURODOV,
TTA rektori v.b, professor



Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!





O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33 yilligiga

BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!



O'zbek tilining izohli lug'atida mustaqillik deb birovga bog'liq, qaram bo'lmagan holatni, davlatning ichki va tashqi siyosatida o'zga mamlakatlarga tobe bo'lmagan sharoitda faoliyat yuritishini bildiradi. Mustaqillik milliy va siyosiy bo'lishi, qisman va to'liq turlariga taqsimlanadi.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishdek ezgu maqsad yo'lida keng qamrovli islohotlar olib borilayotgan bir davrda, taraqqiyotning muhim asoslari bo'lgan ma'naviyat va ma'rifatga e'tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Shu jihatdan jamiyatda ma'naviy muhitni yaxshilash, yosh avlodni bilimga chorchash, har bir fuqaroning yurt taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirish, qolaversa qalblardagi shukronalik tuyg'usini namoyon etish, mehr-oqibat va hamjihatlikni mustahkamlash g'oyalarni keng targ'ib qilish, sahoat va ko'mak, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat tuyg'ularini umumiy ijtimoiy harakatga aylantirish orqali jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni qaror toptirish masalalari har doimgidanda dolzarb.

O'zbekiston Respublikasi bu yili 1-sentabrda o'zining to'liq milliy va

siyosiy mustaqillikka erishganining 33 yilligini nishonlaydi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan "Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz" shiori ostida turli tadbirlar, festivallar, ijodiy uchrashuvlar o'tkazib kelinmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Turon fanlar akademiyasida bugungi kunda dunyoning 24 ta davlatidan akademik va faxriy akademik unvoniga erishgan 1000 ga yaqin ahli ilmlarning faollari va munosiblari orasidan tanlab, faxriy yorliqlar, ko'krak nishonlari, tashakkurnomalar bilan taqdirlash masalalari keng muhokama qilindi. Shu bilan birga Xalqaro Turon yozuvchilar uyushmasi boshqaruv kengashi qaroriga ko'ra bugungi kunda mazkur uyushmaga a'zo bo'lgan 6 ta davlatning 400 ga yaqin a'zolari orasidan munosiblarini Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Halima Xudoyberdiyeva ko'krak nishonlari bilan taqdirlash xususida qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida katta islohotlarni, keng qamrovli o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Reformalar, yangiliklar

aholi turmush darajasini yaxshilash, yashash sifatini oshirish uchun xizmat qildi. Albatta erishgan yutuq va zafarlarimizni e'tirof etish bilan birga yanada oldinga intilish muhim hisoblanadi.

Fursatdan foydalanib, Akademiyamizning muhtaram professor-o'qituvchilarini eng ulug' bayramimiz bilan samimiy qutlaymiz va mustaqilligimiz abadiy bo'lsin deymiz.

*Aytarlar Rizvonning hidi kelgaydir,
Ozodlik bayrog'i qadalgan yerdan.
Qaramlik g'amidani saqlagin taqdir,
Erkin qush qudratli zanjirband
sherdan.*

*Tobe zot zo'r ishga qolmaydi yarab,
Hurlik davom etsin odam naslida.
Ko'krakni to'ldirib ofobga qarab,
Erkin nafas olmoq baxtdir aslida.*

Alijon FAQIROV,
Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi
va Turon Fanlar akademiyasi
akademigi,
Qutbiddin NIZOMOV,
Turon Xalq yozuvchisi,
Turon FA akademigi



Mustaqilligimiz – bu faxrimiz va g'ururimiz.



OLIMPIADA O'YINLARIDAGI TARIXIY YUTUQLAR

Yangi O'zbekistonning Olimpiada o'yinlaridagi tarixiy yutuqlari barchamizga faxr va iftixordir.

O'tgan yarim oy yurtdoshlarimizning har biri uchun hayajonli va quvonchli bo'ldi. Parij Olimpiadasida qatnashgan farzandlarimiz sabri, matonati, mahorati va kuchli irodasi bilan xalqimizga tarixiy g'alabalarni taqdim etdi.

Yurtimiz farzandlarining g'alabalari tufayli O'zbekiston Olimpiadada qatnashgan 208 mamlakat orasidan 13-o'rinni egallab, TOP-15 mamlakatlar safidan o'rin oldi.

Bundan tashqari, ushbu yutuqlar tufayli mamlakatimiz Osiyoda 4-o'rinni, turkiy tilli davlatlar, musulmon davlatlar va MDH davlatlari orasida 1-o'rinni egalladi. Bir yo'la 3 nafar sportchimiz ikki karra Olimpiada chempioni bo'ldi. Bu tarixiy g'alabalar barchamiz uchun faxr va iftixordir.

Albatta, bu yutuqlar o'z-o'zidan bo'lgan emas. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida barcha sohalar kabi sport sohasida ham jiddiy islohotlar amalga oshirildi, sportchilarimizga zamonaviy shart-sharoitlar, keng imkoniyatlar yaratib berildi. Bu ana shunday olamshumul g'alabalar uchun zamin yaratdi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Shu o'rinda dunyo nigohini O'zbekistonimiz joylashgan xaritaga takror-takror qaratgan, yurtimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'targan, madhiyamiz baralla yangrashiga sababchi bo'lgan sportchilarimizni, ularning otanalari va oila a'zolarini, yaqinlarini, ustoz va murabbiylarini, qolaversa, sportchilarimiz uchun birdek qayg'urib, tinimsiz duolari orqali qo'llab turgan xalqimizni tarixiy yutuq bilan chin yurakdan tabriklaymiz!

Yurtimiz tinch, xalqimiz turmushi farovon, sportchilarimizning bu kabi yuksak yutuqlari bardavom bo'lsin!

Barkamol avlodlarimiz bilan hamisha faxrlanamiz! Ular bizning iftixorimiz va g'ururimizdir.

Qutbiddin BURHONOV



*Betakrorimsan, yagonasan,
ona Vatanim – O'zbekistonim!*



Xalqimiz XX asr so'nggida erishgan, mamlakatimiz hayoti va taqdirida tom ma'noda tub burilish yasagan, buyuk, olamshumul voqea – O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 33 yilligini qarshilayapti.

Millat ozodligi, yurt istiqboli bilan bog'liq bu tarixiy sana – o'zbekistonliklarning milliy bayrami, eng ulug' va aziz ayyomi, davlatimizni buyuk o'zgarishlar sari yuz burishida imkoniyat eshiklarini keng ochib bergan qutlug' kun sifatida nishonlanmoqda. Millatning qadr-qimmatini va sha'ni tiklangan, o'zligiga ega bo'lgan kun – bu!

Mustaqillik sharofati bilan yangi tarixiy davr boshlandi. Xalqimiz, millatimiz siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka erishdi. Ona tilimizning mavqei yuksaldi. Mustaqillik o'zining tub mohiyati bilan jamiyat va har bir inson hayotini yangi bir yo'nalish bilan yangi bir mazmun va g'oya bilan boyitdi.

Bugun biz baralla aytishimiz mumkin: mustaqillik bog'i o'z mevasini berdi. Barchamiz uning ishtirokchisi bo'ldik, erkimizni o'z qo'limizga kiritdik, ozodlik xalqimizga o'zligini, o'z ismini qaytarib berdi, qadru qimmatimizni joy-joyiga qo'yyapmiz, qadimiy xalq bo'lgan o'zbekimning asl tarixi bunyod etila

boshladi, bugunga kelib, mustaqil yurt farzandlari buyuk bobokalonimiz "Temur tuzuklari"ni o'qimoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston dunyo mamlakatlari

hamjamiyati orasida o'z o'rnini topmoqda. O'zbekiston endilikda jahon ilg'or texnologiyasini olib kelish, fan va texnikaning oxirgi yutuqlari hamda jahon madaniyatini chuqurroq o'zlashtirishga harakat qilmoqda. Respublikamizning qobiliyatli va iste'dodli yoshlari AQSH, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Angliya kabi bir qator rivojlangan davlatlariga o'qishga yuborilmoqda.

Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik! Mustaqillik yillarida ko'p millatli O'zbekiston xalqi o'zining buyuk salohiyati, mustahkam irodasi va matonatini namoyon etdi, og'ir sinov va mashaqqatlarni mardona yengib, katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

Darhaqiqat, mustaqil Vatanimiz – O'zbekiston bugun dunyoga yuz tutmoqda, shu bilan birga dunyo ham O'zbekistonni, uning boy madaniyatini tan olmoqda. Kundan-kunga mamlakatimiz bilan hamkorlik qilish niyatini bildirgan davlatlar ko'payib bormoqda. Sog'liqni saqlash tizimida izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar ham yurtimizda inson umri, uning sihat-salomatligi oliy qadriyat sifatida e'tirof etilib, shifokorlarimizning kasbiy jasorati, yuksak mas'uliyati amalda yanada ulug'lanmoqda. Tizim moddiy-texnika bazasining muttasil yaxshilanishi, yetuk mutaxassislar tayyorlashga e'tibor va tibbiyot xodimlarining har tomonlama moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlanishi natijasida sohada ulkan o'zgarishlar yuz bermoqda. Bugun o'zbek yoshlarining qanotlari dunyo bo'ylab keng parvoz qilmoqda, ularning ilmu fanda, sport sohasida erishayotgan munosib yutuqlari jahon ahlining hayrati, tahsiniga sazovor bo'lmoqda.

"Parij – 2024"da dunyoning 206 davlatidan 10 ming 714 nafar sportchi qatnashdi. Ular orasidan 84 davlat sportchilarigina shohsupaga ko'tarildi. Oltin medalni qo'lga kiritganlar yanada

kam – 62 ta. O'zbekiston sportchilari esa 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 bronza jami 13 medal jamg'arib, umumjamoa hisobida 13-o'rinni egalladi. O'zbekiston sport delegatsiyasi Osiyoda to'rtinchi, MDH davlatlari va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida birinchi o'rinni egalladi.

Bokschilarimiz 5 ta oltin bilan Xitoy, Xitoy Taypeyi, Jazoir, Kuba, Irlandiya, Qozog'iston, Ukraina, Fransiya, Ispaniya, Turkiya, AQSH va Ozarbayjon kabi boks eng rivojlangan davlat sportchilarini ortda qoldirdi.

XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlarida Diyora Keldiyorova (dzyudo, -52 kg), Ulug'bek Rashitov (taekvondo WT, -68 kg), Razambek Jamalov (erkin kurash, -74 kg), Hasanboy Do'smatov (boks, -51 kg), Abdumalik Xalokov (boks, -57 kg), Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev (boks, -71 kg), Lazizbek Mullajonov (boks, -80 kg), Bahodir Jalolov (boks, +92 kg) oltin medalni qo'lga kiritdi. Akbar Jo'rayev (og'ir atletika, -102 kg), Svetlana Osipova (taekvondo WT, +67 kg) kumush medal bilan taqdirlangan bo'lsa, Muzaffarbek To'raboyev (dzyudo, -100 kg), Alisher Yusupov (dzyudo, +100 kg) va G'ulomjon Abdullayev (erkin kurash, -57 kg) bronza medaliga sazovor bo'ldi.

XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlarining eng muhim voqealari

yurtimiz sport ixlosmandlari uchun dzyudo, taekvondo va boks musobaqalarida kuzatildi. Hamyurtimiz Diyora Keldiyorova oltin

medalni qo'lga kiritib, dzyudo sporti tarixida yangi sahifa ochgani, taekvondo WT bo'yicha ayollar o'rtasida Svetlana Osipova kumush medalga sazovor bo'lishi, Bahodir Jalolov, Hasanboy Do'smatov, taekvondochimiz Ulug'bek Rashitov faoliyatida ikkinchi marotaba Olimpiada chempionligi shohsupasiga ko'tarilishi mamlakatimiz sportining yangi zarvaragi bitilishini ta'minladi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadida mamlakatimizda keng ko'lami islohotlar, hayotimizning barcha jabhalarini erkinlashtirish, iqtisodiyot va uning tarmoqlarini, xususi tadbirkorlikni yanada rivojlantirish yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirilmog'da.

Vatan ozod bo'lgan, buyuk istiqbol, istiqbol bergan zamonda yashab, Vatanimiz tarixini mukammal o'rganmoq, ajdodlarimiz ma'naviy merosini anglamoq, eng ezgu shukrona ne'mat – mustaqillikni asramoq, tinchlikni qo'riqlamoq sizni bizning burchimiz ekanlikni doimo yodda tutmog'imiz lozim! Istiqbolining 33 yili qutlug' bo'lgan buyuk Vatanimiz istiqboli yanada yuksak, nurli, istiqbolli bo'lsin! "Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!" shiori esa har birimizdan Vatanimizga sadoqat, mehr va iftixor bilan astoydil xizmat qilishga undaydi!

Zotan she'riy satrlarda bitilgandek:

*Sen mening fayzli o'tgan har onim,
E'tiqod, imkonim, yuksaklik shonim.
Istiqbol bayrog'in baland ko'targum,
Istiqboli oydin O'zbekistonim...*

Shoira QODIROVA,

Tibbiy-pedagogika fakulteti katta o'qituvchisi

ISTIQBOLI OYDIN O'ZBEKISTONIM

Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!





MUZOKARALAR OLIB BORILDI

Joriy yilning iyul oyi so'nggida O'zbekiston Sog'liqni saqlash vaziri boshchiligidagi delegatsiya Rossiya Federatsiyasiga tashrif buyurgan edi.

O'zbekiston Sog'liqni saqlash vaziri A.Xudayarov va Rossiya Sog'liqni saqlash vaziri M.Murashko uchrashuvi bo'lib otib, unda ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, birlamchi bo'g'inda faoliyat olib borayotgan shifokorlarni tayyorlash kabi masalalar muhokama qilindi.

Delegatsiya tarkibida Toshkent tibbiyot akademiyasi rahbariyati

Moskva shahrida bo'lib o'tgan "Sog'lom jamiyat" nomli xalqaro forumda ishtirok etdi. Forum doirasida bir qator xalqaro tashkilot rahbarlari bilan hamkorlik bo'yicha muzokaralar olib borildi.

Tashrif davomida delegatsiya a'zolari N.I.Pirogov Nomidagi Rossiya Milliy tadqiqot tibbiyot universiteti rektori, Akademik V.I.Kulakov nomidagi akusherlik, ginekologiya va perinatologiya milliy tibbiy tadqiqot markazi hamda P.A.Gertsen nomidagi Moskva saraton ilmiy-tadqiqot

instituti rahbarlari bilan uchrashib, unda o'zaro hamkorlik bo'yicha muzokaralar olib borildi. Bundan tashqari, Birlamchi tizim, oilaviy poliklinikalarga tashrif buyurib, bugungi kunda ushbu bo'g'inda olib borilayotgan amaliy ishlar bilan tanishdi.

Ushbu tashrif ikki davlat o'rtasida hamkorlik aloqalarini turli yo'nalishlarda yanada kengaytirish, istiqbolli loyihalarni ro'yobga chiqish uchun xizmat qilishi ta'kidlandi.

TTA Matbuot xizmati

XALQARO HAMKORLIK



THE

University Impact Forum

2024-yilning 19-sentabr kuni dunyoning nufuzli universitetlar reytingi kompaniyasi Times Higher Education tomonidan tashkil etilayotgan "THE University Impact Forum: Health & Well-being 2024" xalqaro forumida Toshkent tibbiyot akademiyasi hamkor sifatida ishtirok etishi rejalashtirilgan.

Xalqaro Forumda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalaridan ilk marotaba "Speaker" sifatida Toshkent tibbiyot akademiyasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori, professor Shuhrat Boymuradov ishtirok etadi.

Unda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish dasturlari, jumladan "SDG 3 health and well-being" sog'liqni saqlash va farovonlikni ta'minlash, shuningdek, universitetlarning asosiy kasalliklar va sharoitlarni o'rganishda, sog'liqni saqlash kasblarini qo'llab-quvvatlashda va talabalar va xodimlarning sog'lig'iga g'amxo'rlik qilishda tutgan o'rnini muhokama qilinadi.



*Go'zal va betakrorimsan,
muqaddas Vatanim, jonim senga fido,
O'zbekistonim!*



SAODATLI

Umr...

Nomdor akademiklarimiz ilmini o'rganish maqsadida Doctor_Reporter_Debat loyihasi doirasida start olgan haftalikning ustozimga bag'ishlangani hammadan ko'ra men va kafedramiz ilmiy-pedagogik jamoasini behad quvontirdi.

Ustozimiz To'lg'in Iskandarovich Iskandarov yaratgan ilmiy maktab o'rganishga loyiq. U boshlab bergan ibrat yo'li yosh olimlarni hali yanada yorqin manzillar sari boshlab boradi.

Hurmatli Ustoz! Siz katta va ahil ilmiy sulola sardori – fikri teran, tafakkuri keng, ochiq qalbli inson, tibbiyot ilmining yetuk mutaxassisi, tibbiy profilaktika yo'nalishida maktab yaratgan, Respublikamiz uchun yuqori malakali yetuk tibbiyot mutaxassislari tayyorlashda o'zining salmoqli hissasini qo'shib kelayotgan jonkuyar ustozsiz.

Saodatli umrning muhim vositasi hisoblangan vaqt va baxtning qadr-qimmatini anglagan, yurti va yurtdoshlariga sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgan jonkuyar inson va tajribali shifokor, o'zbek olimi, gigiyenist, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, tibbiyot fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan vrach T.Iskandarovni kamtarona xislatlari bilan jamiyat oldidagi burchini o'zi uchun farz bilgan olim, gigiyena yo'nalishining otasi sifatida hurmat qilamiz.

T.Iskandarov 1980-yildan 1989-yilgacha – O'zRSSV qoshidagi Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy tadqiqot insti-tutining direktori, 1989-yildan 1995-yilgacha – O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi bosh davlat sanitariya vrachi, 1995-yildan 2010-yilgacha – Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy tadqiqot instituti direktori lavozimlarida faoliyat yuritgan. 2010-yildan hozirgi vaqtgacha – Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy tadqiqot instituti loyiha rahbari, pestitsidlar gigiyena va toksikologiya laboratoriya mudiri, 2017-yildan hozirgi vaqtgacha – Toshkent tibbiyot akademiyasi «Kommunal va mehnat gigiyena» kafedrasining jamoatchilik asosida professor-maslahatchisi hisoblanadi.

O'zRSSV Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ITIsi ilmiy kengash a'zosi; O'zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi raisining o'rinbosari; O'zbekiston vrachlar assotsiatsiyasida gigiyenist va sanitar vrachlar bo'limi raisi; «O'zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi byulleteni» jurnalining tahririyat kengashi raisi; «O'zbekiston tibbiyot jurnali»ning tahririyat a'zosi; «Nazariy va klinik tibbiyot jurnali»ning tahririyat a'zosi; «O'zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi byulleteni» jurnalining bosh muharriri bo'lib ishlab kelmoqda. Shuningdek, Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSC.04/30.12.2019.tib.30.03 raqamli ilmiy kengash a'zosi.

2000-yilda Angliyaning Kembridj universitetini «20-asrning



buyuk odamlari» medali bilan taqdirlandi, uning nomi Kembridj universitetida tuzilgan va chop etilgan «20-asrning buyuk odamlari» ro'yxatiga kiritilgan.

T.Iskandarov O'zbekiston gigiyenistlari va toksikologlarining ulkan ilmiy maktabini yaratdi, uning rahbarligida 100 dan ortiq fan doktorlari va nomzodlari tayyorlandi.

T.Iskandarov o'zining tibbiyot sohasida ko'rsatgan fidokorona mehnatlari uchun 1981-yil – «Hurmat belgisi» ordeni, 1983-yil – «Sog'liqni saqlash a'lochisi», 1984-yil – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan vrach, 1986-yil – «Mehnat Qizil bayroq» ordeni, 1987-yil – «Oliy ma'rifat sohasida a'lo xizmatlari uchun»; 1989-yil – «Mehnat faxriysi» medali; 2003-yil – «O'zbekiston Fanlar akademiyasi 60 yilligi» ko'krak nishoni; 2017-yil – «O'zbekiston Konstitutsiyasining 25 yilligi» esdalik nishoni; 2019-yil – «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni, «TTA 100 yilligi» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Ustoz nafaqat ishda, balki oila va farzandlar tarbiyasida ham shaxsiy o'rnak ko'rsatib kelmoqda. Farzandlari va nabiralari ham uning izdoshlaringiz sifatida yetuk olim va olimalar bo'lib yetishgan.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, tibbiyot fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan vrach, fidokorona mehnatlari uchun bir necha bor davlat orden va medallari sohibi bo'lgan aziz ustozim! Toshkent tibbiyot akademiyasi Tibbiy profilaktika fakulteti jamoasi nomidan sizga mustahkam sog'liq, oilaviy xotirjamlik, mamlakatimiz va jamiyatimiz ravnaqi uchun yana uzoq yillar xizmat qilishingiz, ijodiy yutuqlar, uzoq va mazmunli umr tilaymiz. Siz yaratgan maktab o'rganishga loyiq, siz boshlab bergan ibrat yo'li yosh olimlarni hali yanada yorqin manzillar sari boshlab boradi. Yaqinlaringiz mehri va shogirdlaringiz hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lib yurishingizga tilakdoshimiz!

F.SALOMOVA,

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi va kimyo fakulteti dekani, t.f.d., professor



Istiqlolimiz – baxtimiz, saodatimiz.



TABOBAT ILMI NIMA?

Tibbiyot, tabobat ilmi – kishilar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, umrini uzaytirish, kasalliklarning oldini olish, davolash haqidagi bilimlar va shu sohadagi amaliy tadbirlar majmuidir.

Bu ilmni o'rganish qanchalik mashaqqat, qiyinchilik va mas'uliyat talab qilishini qachonki bu ilmni o'rganish yo'lidan o'tmaguncha his qilmaydi. Tabobat ilmi inson hayotida katta ahamiyatga ega ekanligi hammaga ma'lum. Ulug' hakim Abu Ali ibn Sino tabobat ilmi ta'rifi haqida «Tib qonunlari»da berilgan bayonoti asrlar davomida shifokorlar va ularning behisob ko'p avlodlari uchun yo'l ko'rsatkich bo'lib kelmoqda. U shunday deydi: «Tabobat shunday bir ilmki, u bilan odam gavdasining ahvoli sog' va kasallik jihatidan o'rganilib, uning mavjud sog'ligi saqlanadi, yo'qotilgani qaytariladi. Tib nazariy va amaliy bo'ladi, deyilganda, bundan maqsad shu mavzuda bahs qiluvchilarning ko'plari o'ylagani singari, tabobatning bir qismi ilmni o'rganishdan, ikkinchi qismi amaliy ish bilan shug'ullanishdan iborat, deb tushunmaslik kerak, balki sen bundan boshqa bir narsani tushunishing lozim. U narsa shuki, tabobatning ikkala qismidan hech biri ilmdan boshqa narsa emas. Lekin ulardan biri tabobat qoidalarining ilmi bo'lib, ikkinchi ilm esa amaliy ishlarning qanday bo'lishidir». Bu muqaddimada aytilganlarning hammasi ham, hakimning va bizning tib ilmi haqida qat'iyat bilan asoslagan tushunchamiz ham, tabobat ilmining ta'rifida aytgani odam gavdasini o'rganish, birinchidan, sog'liqni saqlay bilishga, ikkinchidan, sog'liq yo'qotilgan bo'lsa, uni qayta tiklay bilishga bog'liq, degan fikri

ham juda ajoyibdir. O'sha davrning tibbiyot fani qay holda ekanligini esda tutgan taqdiridagina Ibn Sinoning novatorlik fikrlari, takliflari, davolash metodlari qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini to'la tushunib olish mumkin.

Ibn Sinoning jasorati nechog'lik ulug'vor ekanligini aniqlash uchun uning bilimni aniqlashgina emas, balki, eng qiyini – o'sha vaqtning oddiy tushunchalari doirasini tasavvur qilish uchun o'zimiz bilgan hamma narsani unutishimiz kerak bo'ladi. Buning uchun yerning dumaloq ekanligini, uning aylanishini, yurakning qonni hamma a'zolariga yuborib turganini, qon aylanish doirasi borligini, kislorod borligini va boshqa behisob ko'p narsalarni unutishimiz kerak. O'zimizga odat bo'lib singib ketgan fikrlarni chetlashtirib, ma'lum darajada unutganimizdan keyin, Ibn Sinoning xizmatlari, juda ko'p eng mushkul masalalarni yechishdagi mardligi ko'z oldimizda yanada qudratliroq bo'lib gavdalanadi. Odamning taqdiri osmondagi yulduzlarning joylashuviga bog'liq ekanligi va «falsafiy tosh» yordami bilan qo'rg'oshindan oltin olish mumkinligi haqidagi fikrni hamma bilar edi. Astrologiyaning bema'ni gap ekanligi haqida gapirish uchun ozmuncha mardlik, qo'rqmay mulohaza yuritish va shuhrat qozongan shaxslarga qarshi chiqa bilish talab qilinmas edi.

Hozirgi zamon tibbiyoti qay darajada rivojlanmasin barcha erishilayotgan yutuqlari qadimiy tabobat ya'ni xalq tabobati nazariyasi va amaliyotiga tayanib erishmoqda. Barcha ishlab chiqarilayotgan kimyoviy dori



vositalarini xalqimiz juda ko'p me'yoridan ortiq foydalanmoqda, lekin bu dorilar organizmga foydasidan ziyoni ko'proq ekanligini o'zbek xalqi haligacha tushunib yetgani yo'q.

O'zbekiston Respublikasi hududida tabiiy va geografik jihatdan dorivor o'simliklarga boy hudud hisoblanib, respublikada tabiiy holda mavjud 4500 turga yaqin yuksak o'simliklarning 1200 ga yaqini dorivor xususiyatiga ega. Bu o'simliklarni foydasini xalqimizga olib kirish uchun xalq tabobatiga juda katta e'tibor berilmoqda. Jumladan tibbiyot oliygohlarida ochilgan Xalq tabobati fakulteti shular jumlasidan.

Xalq tabobati rivojlangan davlatlarda odamlarning sog'lom fikrlashi, sog'lom turmush tarzi, o'rtacha umr uzoqligi va kelajakda tug'ilayotgan bolalar jismoniy va aqliy sog'lom bo'lishi yuqori bo'ladi.

Alijon ZOHIDIY,
Xalqaro Turon yozuvchilar
uyushmasi a'zosi,
Beklarbek SUYUNOV,
TTA Xalq tabobati fakulteti
talabasi, "Doktor reportyor"
debat klubi a'zosi



Yagonasan, ona Vatanim.



CHEKISHNI TASHLAGAN INSON ORGANIZMIDA QANDAY O'ZGARISHLAR RO'Y BERADI?



Tahlillarga ko'ra, tamaki chekish oqibatida dunyoda har yili o'rtacha 8 million kishi hayotdan ko'z yumadi. Chekish inson umrini taxminan 10 yilga qisqartirishi ham olimlar tomonidan isbotlangan fakt. Bu dahshatli statistika har bir chekuvchi insonni bu zararli odatdan voz kechishga undashi kerak.

Xo'sh, sigaretdan voz kechgandan keyin organizmda qanday o'zgarishlar ro'y beradi?

Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori Zarifjon Ashurov:

— Chekishni tashlagandan so'ng dastlabki o'zgarishlar bir necha daqiqa ichida boshlanadi. Xususan, 20 daqiqadan keyin puls va arterial bosim normallashtirib, qon aylanishi yaxshilanadi. 8 soatdan so'ng qondagi uglerod monoksid miqdori kamayadi, kislorod esa normal ko'rsatkichga qaytadi. Bu, o'z navbatida, to'qimalarda gipoksiya paydo bo'lishining oldini oladi, — deydi mutaxassis.

Chekish qon tomirlarining torayishi va arterial bosimning ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Sigaretdan voz kechgandan 24 soat o'tib, miokard infarkti xavfi pasaya

boshlaydi, yurak va qon tomirlari me'yorda ishlashi tiklanadi.

Sigaret tarkibidagi nikotin va boshqa kimyoviy moddalar asab tizimiga zarar yetkazishi tufayli insonda ta'm va hid

sezish qobiliyati yomonlashadi. Chekishni tashlagan odamda 48 soatdan keyin bu hislar yaxshilanadi.

Nikotin va boshqa toksinlar bronxlarda spazmlar keltirib chiqarib, nafas olish tizimi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. 72 soat ichida bronx mushaklari bo'shashib, nafas yo'llari shilliq va boshqa ifloslanishlardan tozalanadi. 2-12 hafta ichida tamakidan voz kechgan insonda qon aylanishi va o'pka faoliyati yaxshilanadi. Bu esa organlar va to'qimalarning kislorod va ozuqa moddalari bilan to'yinishiga xizmat qiladi. 3-9 oy o'tib, yo'tal va nafas qisishi kamayadi.

1 yildan keyin yurak ishemik kasalligiga chalinish xavfi ikki barobarga kamayadi. Chekish insultning asosiy sabablaridan biri ekanligi sir emas. Sababi u qon tomirlarning torayishiga olib kelib, tromb hosil bo'lish ehtimolini oshiradi. Bu zararli odatdan voz kechgan odamda 5 yildan so'ng insult xavfi chekmaydiganlar darajasiga tushadi.

Tamaki tutunidagi toksinlar hujayralarda mutatsiyalarni keltirib chiqarishi sababli ular saraton rivojlanishiga olib kelishi

mumkin. Ammo chekishni tashlash kanserogenlar ta'sirini kamaytiradi va hujayralarning tiklanishiga yordam beradi — 10 yildan so'ng o'pka saratoni xavfi chekuvchilarga qaraganda ikki barobarga kamayadi. Buning natijasida og'iz bo'shlig'i, tomoq, oshqozon raki ehtimoli ham pasayadi. 15 yil o'tib, yurak ishemik kasalligi va miokard infarkti xavfi chekmaydiganlar darajasiga qaytadi. Yurak va qon tomirlari chekish oqibatida yetkazilgan zarardan to'liq tiklanadi. Arterial gipertenziya, ateroskleroz va boshqa yurak-qon tomir kasalliklari xavfi kamayadi.

To'g'ri, chekishni tashlash ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan oson kechmaydi. Nikotinga qaramlikdan qutulish uchun vaqt, sabr va iroda kerak. Ammo astoydil harakat qilib, har bir inson, hatto ko'p yillar davomida chekib kelganlar ham buni uddalashi mumkin — hammasi o'z qo'lingizda!

Sog'liqni saqlash vazirligi
Matbuot xizmati



MUASSIS:
TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI

MUHARRIR
TURDIQUL
BOBOMURATOV

TAHRIR HAY'ATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent
Tibbiyot akademiyasi RIZOGRAFda
400 nusxada chop etildi.
Manziliimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun mas'ul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun
mualliflar javobgardir

Bepul tarqatiladi